

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QARINDOSHLIK TERMINLARINING LEKSIK- SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Abdusattorov Mavlon Sherali o'g'li

*Samarqand davlat chet tillar instituti,
Lingvistika yo'nalishi, 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi qarindoshlik terminlari leksik-semantik xususiyatlari tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bobo, tog'a, amma, ota-ona, xotin, qarindoshlik, yaqinlik, farzandlar, urug'chilik, urf- odat, madaniyat.

Abstract: This article discusses the analysis of the lexical-semantic properties of kinship terms in English and Uzbek from a linguistic perspective.

Keywords: Grandfather, uncle, aunt, parents, wife, kinship, closeness, children, lineage, tradition, culture.

Har bir tilning leksik qatlami uning fonetik va morfologik qurilishiga nisbatan o'zgaruvchan bo'lib, asrlar osha har bir davrga xos o'zgarishlarni o'zida aks ettira boradi. Lekin qarindoshlik terminlari leksikaning boshqa terminlariga nisbatan turg'un va konservativ bo'lib, ma'nodagi siljishlar/ torayish, kengayish/ni hisobga olmaganda yaratilgan davrdagi shakllarini deyarli saqlab qolgan.

Tilshunos olimlarning tadqiqot natijalariga ko'ra, ibtidoiy jamiyatning dastlabki bosqichlarida qarindoshlik terminlari umumiy tushuncha (katta, ulug', buyuk ayol yoki erkakligini farqlamay) ma'nosini ifodalab, so'ng hayot taraqqiyotining ma'lum davrlaridan so'ng ular differensiyalasha borgan. Qarindoshlik terminlarining umumiylikdan xususiylikka qarab bo'lgan harakati ingliz va o'zbek tillari materiallarida ham o'z ifodasini topgan. Qarindoshlik terminlarini bu ikki tilda qiyoslab o'rganib chiqamiz.

OTA/ FATHER. Ota termini o'zbek adabiy tili va uning shevalarida bo'lganidek, boshqa tillarda ham keng qo'llanuvchi ota terminidan anglatgan ma'nosi farq qilmagan holda, fonetik farqi bilan ajralib turadi. Etimologiyaga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda *ata*, *dada* qarindoshlik terminlari haqida turli xil fikr-mulohazalar bayon qilingan. Jumladan, *ata*, *ada*, *dada* variantlari bilan to//ta so'zi asosida yaratilgan. Tarixan to// ta so'zi qarindoshlik munosabatini ifodalamay, katta, ulug', buyuk ma'nolarini anglatgan va yillar osha qarindoshlik termini maqomini kasb etgan.

Ingliz tilida *Father* termini qadimgi german tillaridagi *fadar*, *vater* (nemischa) va hatto sanskrit tilidagi *pitar* so'zlariga borib taqaladi. Ingliz tilida *father*

terminining turli shakllarini *father, dad, daddy, papa, old man* ko‘rishimiz mumkin. *Father* termini bolaning erkak biologik otasi, diniy etakchi, millat yoki biror harakat asoschisi kabi ma‘nolarni anglatadi.

ONA/ MOTHER. O‘zbek qarindoshlik sistemasida va uning shevalarida ona termini ana /opa / va ena /anna/ ma‘nosida keng qo‘llaniladi. Ana termini fonetik qurilishi va anglatgan ma‘nosiga ko‘ra qadimgi yozma yodgorliklarda qayd qilingan ana terminiga mos keladi. Lekin, o‘zbek tili va uning sheva xususiyatlariga ko‘ra, uning turli xil variantlari yuzaga kelgan, shevalarda uning *ona, ana, enke, ene, buva, ebe, aye* shakllari ishlatiladi.

Ingliz tilida *mother* qadimgi inglizcha *modor* so‘zidan kelib chiqqan. Ingliz tilida *mother, mom, mum, mommy, mummy* shakllari keng qo‘llanadi.

BOBO/ GRANDFAHTER. Adabiy tilda ota va onalarning otalarini ifodalovchi bobo buva tushunchasi o‘zbek shevalarida *oppoqdeda, oppo: dada, opo: da, oppodda* kabi termin variantlari bilan ifodalanadi. O‘zbek tilida saqlangan variantlari ikki mustaqil qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi aba+dada terminlarini birikuvidan iborat bo‘lib, rang tus ifodalovchi oq leksemasi sifatida emas, balki, yillar osha ular so‘z formalarining torayishi qonuniga muvofiq *aba-dada- apa dada- oppoda- oppo:da* shakliga kelib qolgan. Ta‘kidlaganimizdek, qarindoshlik terminlarini jinsiy farqlash xususiyatlarini kasb eta bo‘lmagandan keyin bobo bilan momoni farqlash kerak bo‘lganda, oppoq dada termini orqali bobolarni, oppog`acha orqali momo ma‘nosini anglati boshlagan. Shunday qilib opa/ aba/ acha, dada terminlarining birikuvidan bir qator terminlari yasala boshlangan.

Hozigi ingliz tilida bobo tushunchasi *grandfather, granddad, grandpapa* kabi so‘zlar bilan ifodalanadi. *Grandfather* xuddi o‘zbek tilidagidek ingliz tilida ham ota yoki onaning otasi, ya‘ni bobosi degan ma‘noni anglatadi. Ingliz tilida *grandfather* so‘zi ikki qismdan iborat: *Grand* (eski fransuzcha *grant-* “katta, muhim”), *Fahter* (eski inglizcha *fader-* “ota”) bu so‘z taxminan XV asrda ingliz tiliga kirib kelgan va asl ma‘nosi “katta ota”, ya‘ni “otamning yoki onamning otasi” sifatida shakllangan.

**TOG`A/UNCLE.** O‘zbek adabiy tilida tog`a qarindoshlik termini, boshqa tillarda bo‘lganidek, anglatgan ma‘nosiga ko‘ra turg`un hisoblanib, onaning akasi – ukalarini ifodalash uchun ishlatiladi. Tog`a terminining etimologiyasi haqida ham olimlar turli xil fikr mulohazalarni bayon qilishgan. L.A. Pokorovskayani fikricha, turkiy tillardagi tog`a terminini fonetik variantlari bosqichma- bosqich shakllangan bo‘lib, uning tadrijiy takomili: *ta`ga – tag`ay// daay- day- dayin- dayi* yo‘nalishi bo‘ylab yuzaga kelgan. Bularning variantlari tog`a bo‘lishi mumkin. Lekin yillar osha jamiyatdagi formatsiyalarning o‘zgarishi, qarindoshlik davrasining kengayib borishi ota va ona tomonidagi qarindoshlarini bir-biridan farqlash, jinsiy ajratib

atash zarurati sezila borishi bilan har bir avlodni o'z nomi bilan atash kerak bo'lgan. Ana shu hayotiy zarurat asosida ota bilan undan katta aka- ukalarni farqlash uchun to- ota so'ziga sifat hamda ravish turkumlariga mansub g'an katta, ulug', ko'p ma'nosini ifodalaydigan so'zni qo'shib ,yangi qarindoshlik terminini yasalgan: to+g'an "katta ota", "otaning katta akasi" ma'nosini anglatgan. Shunisi xarakterliki, yuqorida qilingan tillar bazasida to+gan shaklida yaratilgan termin oxiridagi /N/ tushirilib talaffuz etilishi ham qayd etilgan.

Hozirgi ingliz tilida *uncle (father's brother)* "otaning akasi yoki ukasi" va *uncle (mother's brother)* "onaning akasi yoki ukasi" leksemalari ma'nolarida ishlatiladi, bu ham kekxa kishiga murojaat shakli bo'lib, og'zaki dialektlarda ifodalanadi. *Uncle* so'zi lotincha "avunculus" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "kichik aka" yoki "kichik ota" degan ma'noni anglatadi.

AMMA/AUNT termini qadimda, umuman, ona – ayol momo, buvi ma'nolarini anglatgan, ebe- ene // ene-eme terminlari asosida shakllangan. Faqat tarixiy abama// ene // ama shakliga boshqa turkiy tillarda bir (m) tovushi qo'shilgan holda qo'llagan va o'zbek tilida ham "otaning opa-singillari" ma'nosida ifodalash ma'nosini kasb etgan. Dunyo tillarida, umuman, o'zbek tilida, xususan, qarindoshlik terminlarining umumiy ma'nosini anglatishdan xususiy, yakka shaxs ma'nosini ifodalashga o'tishi olimlar tomonidan tan olingan.

O'zbek tilining bu xususiyati faqat fonetik va morfologik xususiyatlaridagina emas, balki, uning lug'at fondi asosini tashkil etuvchi leksik qatlamida ham o'z ifodasini topgan.

Ingliz tilida *aunt* termini xola va amma ma'nolarini ifodalaydi. *Aunt* so'zi qadimgi fransuzcha "ante" yoki "antece" so'zidan kelib chiqqan. Fransuz tilidagi bu so'z esa o'z navbatida lotincha "amita" (ya'ni ona tomonidan xola yoki amma) so'zidan olingan. Demak, lotincha "amita", fransuzcha "ante", inglizcha "aunt" ko'rinishida rivojlangan.

XOTIN/WIFE. Qadimgi davrdagi xotin termini hozirgi anglatgan o'zbek adabiy tilidagi variantlari bilan dastlabki anglatgan ma'nosidan tamoman uzoqlashib ketgan va boshqa xotin ma'nosini kasb etib qolgan.

Avvalgi boblarda o'zbek va ingliz tillarining gorizontaal va vertikal yo'nalishdagi chiziqlarida ayol jinsidagi qarindoshlik mantiqiy-lisoniy kategoriyasining funktsional-semantik mikrotizimlari (FSMT) ma'nolariga xos ekspressiv vositalar tizimi ko'rib chiqildi. Ushbu kategoriyaga tegishli FSMT tarkibiy qismlari qiymatlarining ekspressiv vositalarini tahlil qilganda, har bir FSMT tarkibiy qismlari qiymatlari odamlar o'rtasidagi munosabatlarda ayol va neytral jinsli qarindoshlik ma'nolarini bildiruvchi ma'lum korrelyatsion atamalar bilan bog'liqligi aniqlandi.

“Yaqinlik” mantiqiy kategoriyasi ma'nosi bir nechta leksemalar semantik tarkibida kuzatiladigan turlardan biri bo'lib, ularning umumiyligi har bir til lug'atidagi biron bir funktsional-semantik mikrotizimning o'ziga xos xususiyatini namoyon etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, “yaqinlik” va “qarindoshlik” tushunchalari o'rtasida tarkiban ma'lum bir o'xshashlik mavjud. Shuning uchun qarindoshlik atamalari tizimini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda “yaqinlik” tushunchasi “qarindoshlik” deb ham qaralgan va yaqinlikni ifodalovchi vositalarni qarindoshlikni ifodalovchi vositalar sifatida ko'rib chiqilgan. Ammo yaqinlik va qarindoshlik munosabatlari tushunchalari lug'atda boshqa-boshqa semantik tarkib hodisalaridan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismoilov.I Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. Toshkent “Fan” 1966.
2. Muxamadieva Z. A. (2012). Ingliz va tojik tillarida nikoh munosabatlari atamalarining qiyosiy tahlili: Dis Qad. filol. Fanlar: 10.02.20. Dushanbe, 142 s.